**Ginnes rekordi yangilandi!** | "Yangi O'zbekiston" bog'ida iste'dodli yosh muhandislarimiz bir vaqtda ko'plab kichik robotlarni yig'ish borasidagi jahon rekordini yangiladi. | Loyihada ishtirok etgan yosh muhandislar: **1946 nafar** | Yig'ilgan robotlar: **1946 ta** | Avvalgi rekord: **1456 ta** *(Hindiston, 2023)*


# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

#33 (16687)
2025-yil 20-avgust, chorshanba

/yoshlarovozi   /yoshlarovozi   /yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan




4-bet

Foto: **Jamshid NORQOBILOV**

# Ekologiya VA TURIZM QURULTOYI

Bugun o'zbekistonlik yoshlar ovozi jahonda har qachongidan balandroq, baralla yangramoqda. Yoshlar siyosati nafaqat ta'lim va bandlikni, balki ekologiya va turizmni ham o'z ichiga olmoqda. Chunki kelajak avlodning atrof-muhitga munosabati, tabiatni asrab-avaylash borasidagi qarashlari, sayohat va turizmga yondashuvi mamlakat taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois yoshlar siyosatini ekologiya va turizm bilan uyg'unlashtirish vaqt talabi, davr chaqirig'idir.

Yaqinda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi "Lochin" oromgohida "Yoshlar – kelajak bunyodkorlari!" shiori ostida bo'lib o'tgan IV Xalqaro ekologiya va turizm qurultoyi ham yoshlarning qiziqishi, tashabbusi va ijodiy g'oyalarini namoyon etishga keng imkon berdi. Qurultoyda nafaqat turli loyihalar taqdim qilindi, balki kelajakka ishonchli nigoh tashlandi.



2-bet

## ISHONCHLI YETAKCHI

Andijon viloyati Xonobod shahridagi Bunyodkor mahallasi yoshlar yetakchisi Shuhratbek Mahmudov yoshlar oid davlat siyosati mahallalarda amalga oshirilishi hamda "Yoshlar balansi" tizimi samaradorligini amalda isbotlab bergan yetakchilardan biridir.

### ISHONCH BILAN TASHLANGAN QADAM

Yetakchi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va bandligini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyat hayotiga jalb etish, iste'dodini yuzaga chiqarish yo'lida tinmay izlanmoqda. Uning faoliyati mahalladagi yoshlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

–*Mahalla yoshlar yetakchisi lavozimida ishlash istagini bildirganlar soni ko'p edi,* – deydi Bunyodkor mahallasi yoshlar yetakchisi Shuhratbek Mahmudov. – *Men ham bu tanlovda o'z kuchimni sinab ko'rishga qaror qildim. Nomzodlar orasidan tanlab olinib, yetakchi sifatida faoliyat boshlaganim menga katta ishonch bildirilganidan dalolat edi. Bu ishonch menga ikki karra mas'uliyat yukladi. Endi har bir qarorim, tashabbusim ortida butun mahalla yoshlari turibdi.*



## 3 kunlik seminar

2-bet

### ISHSIZLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHGA QARATILDI

15–17-avgust kunlari Samarqand shahrida yoshlar ishsizligiga barham berish va jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag'ishlangan respublika amaliy seminari bo'lib o'tdi. Tadbir Yoshlar ishlari agentligi, Respublika komissiyasi hamda Samarqand viloyati hokimligi hamkorligida tashkil etildi. Unda mas'ul idora va tashkilotlar vakillari, xalqaro hamkorlar va turli hududlardan yoshlar ishtirok etdi.

Seminarda yoshlarga oid davlat siyosati, mahallalarda yoshlar bilan ishlash mexanizmlari, bandlikni ta'minlash va jinoyatchilikning oldini olishga doir masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, "Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish" va "Yoshlar ishsizligidan xoli mahalla" yo'nalishlari bo'yicha sho'ba yig'ilishlari o'tkazilib, kasb-hunar kurslari tashkil etish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda imtiyozli kredit va grantlar berish kabi choralar belgilandi.

## DOLZARB 90 KUN

### SPORT, MA'NAVIYAT VA IJTIMOIY FAOLLIK RUHIDA O'TMOQDA

3-bet



Yoshlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida Qo'shtepa tumanidagi Xo'jaqishloq mahallasida "Dolzarb 90 kun" tadbirlari tizimli amalga oshirilmoqda.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan yoshlarga imtihonga kirish ruxsatnomalarini mahallaning o'zida chiqarib berish tashkil etildi. Natijada abituriyentlar hujjatlarini o'z vaqtida, ortiqcha ovoragarchiliksiz olish imkoniga ega bo'ldi.

Norasmiy band bo'lgan yoshlar bilan individual suhbatlar o'tkazilib, ularni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish ishlari olib borilmoqda. Bu orqali ular qonuniy mehnat faoliyatini yo'lga qo'yib, davlat tomonidan belgilangan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

## RAQAMLI DUNYODA MUALLIFLIK HUQUQI



3-bet

Bugun qo'lida smartfoni bor deyarli har bir odam kontent yaratuvchi va tarqatuvchiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqqa post qo'yadi, video-surat joylaydi. Bu jarayonda ular sun'iy intellekt yordamida matn yoki rasm yaratadi. Bunday sharoitda kontentning muallifi kimligi, uni qay darajada himoya qilish mumkinligi tobora muhim masalaga aylanyapti.

Avvallari mualliflik huquqi asosan yozuvchi, shoir, rejissyor yoki musiqachilar uchun qo'llanilgan. Ularning asarlari kitob, sahna yoki ekran orqali ommaga yetib borgan bo'lsa, hozir oddiy bloger ham millionlab ko'ruvchiga ega bo'lishi, oddiy foydalanuvchi ham trend yaratuvchi bo'lib chiqishi mumkin. Shu fonda mualliflik huquqi masalalari yanada murakkablashdi.

### SI MUALLIFMI?

Sun'iy intellekt ijodiy sohalarda eng ko'p bahs-munozara keltirib chiqargan mavzuga aylandi. Bugun birgina buyruq bilan roman yozib beradigan dasturlar, professional rassomlar kabi surat chizadigan neyrotarmoqlar yoki bir necha daqiqada qo'shiq bastalaydigan algoritmlar mavjud. Savol paydo bo'ladi: bu asarning muallifi kim? Dasturmi? Uni yaratgan kompaniyami? Yoki faqatgina "prompt" yozgan foydalanuvchimi?

## QALBLAR BIRLASHGAN FESTIVAL

Zomin tumanida O'zbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Umummilliy birdamlik" festivali va gala-konsert tadbirlari nafaqat bayramona tantana, balki millatlar va qalblar birligining yorqin namoyishiga aylandi.

Duoba mahallasida tashkil etilgan ijtimoiy-ma'rifiy festival unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi. Turli millat va elat vakillari o'z milliy liboslari, mazali taomlari, raqs va musiqaviy namoyishlari bilan qatnashib, yurtimizdagi madaniy xilma-xillik va birdamlik qanday chuqur ildiz otganini namoyon etdi.

Festival Zomin tumani hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Nuroniy" jamg'armasi, Mahallalar uyushmasi, madaniyat bo'limi, mahalla yettiligi hamda "Barkamol avlod" bolalar maktabi singari muassasa va tashkilotlar hamkorligida tashkil etildi.

Zomin tuman markaziy o'yingohida tashkil etilgan gala-konsert esa bayramga tom ma'noda madaniy shukuh baxsh etdi.

**Abdujalol QAYUMOV,**
O'zA muxbiri





## O'zbekiston YOSHLAR SIYOSATI

4-bet

Bugun O'zbekistonda yoshlar siyosati bo'yicha ko'plab muhim ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar masalalariga bag'ishlab turli qonun, farmon, farmoyishlar qabul qilinyapti. "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida 2018-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni asosida yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan moliyalashtiruvchi tijorat banklari bilan birgalikda ishlab chiqiladigan namunaviy biznes rejalar asosida moliyalashtiriladi. Yoshlarning qiymati 2 milliard so'mdan yuqori bo'lgan loyihalarini moliyalashtirish va ularning biznes rejalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi.

## YOSHLAR VENTURES G'OYADAN IMKONIYAT

4-bet

Har bir g'oya amaliyotga tatbiq etilishi uchun unga ishonch, bilim, tajriba, muhit va resurs kerak. Shu ehtiyojlarni chuqur anglagan holda Yoshlar ishlari agentligi ta'sis etgan "Yoshlar Ventures" jamg'armasi yoshlarning innovatsion salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida ish boshladi.

"Yoshlar Ventures" yurtimiz yoshlari orasida startap madaniyatini shakllantirish, texnologik va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mahalliy venchurlardan biridir. Loyiha ayni damda o'z faoliyatini startap savodxonligini oshirish, tanlovlar tashkil etish, yoshlarni innovatsion fikrlashga undash orqali muhim bosqichni bosib o'tmoqda.

# 3 kunlik seminar

## ISHSIZLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHGA QARATILDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.





Seminarda Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomli bog‘da bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasi va “Ta’lim ko‘rgazmasi” o‘tkazildi. Viloyatdagi 85 ta tashkilot 3 mingdan ortiq ish o‘rinlarini taqdim etdi. Yoshlar uchun foydali loyihalar, hududlarda yetishtirilgan mahsulotlar ko‘rgazmasi ham namoyish qilindi. Tadbir ishtirokchilari chet tillarni o‘rganish, kitobxonlik, shaxmat va zamonaviy kasblarga oid loyihalar bo‘yicha imkoniyatlar bilan tanishdi.

Seminarning amaliy qismi sifatida ishtirokchilar jomboylik yosh tadbirkor Shohruz Nurullayevning malina plantatsiyasida bo‘lib, u bilan tajriba almashildi. Shuningdek, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros universitetida talabalarning bandlik dasturiga bag‘ishlangan uchrashuv bo‘lib, “Talabalar balansi” tizimi, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va 92 ming nafar bitiruvchini ish bilan ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Uch kun davom etgan seminar yoshlar bandligini ta’minlash va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha hududlarda amalga oshiriladigan amaliy ishlar uchun yangi yondashuvlar hamda samarali hamkorlik mexanizmlarini belgilab berdi.

# BITIRUVCHILARNI ESHITDIK

“Yoshlarni eshitamiz” loyihasi doirasidagi navbatdagi uchrashuv 14-avgust kuni Samarqand shahridagi Yoshlar markazida tashkil etildi. Muloqotda ta’lim muassasalarini bitirayotgan yoshlar, mas’ul tashkilotlar rahbarlari hamda Yoshlar ishlari agentligi vakillari ishtirok etdi.

Eslatib o‘tamiz, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun kuni yoshlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida bildirilgan tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida iyul–dekabr oylarida turli yo‘nalishlarda yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etilishi belgilangan edi. Dastlabki muloqot Toshkent shahrida yosh tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan bo‘lsa, bu safar uchrashuv bitiruvchi yoshlar bilan tashkil etildi.

Tadbirda yoshlarga o‘z g‘oya va tashabbuslarini bildirish, mavjud muammolarini ochiq aytish uchun imkoniyat yaratildi. Mas’ul rahbarlar bevosita savol-javob shaklida muloqot qilib, ko‘tarilgan masalalar yuzasidan amaliy tavsiyalar berdi. Murojaatlarning ayrimlari joyida hal etildi, boshqa muammolar tegishli tashkilotlar zimmasiga yuklatildi.

Muloqotda bildirilgan fikr va takliflar kelgusida tizimli ravishda ko‘rib chiqilib, ularning ijrosi nazoratga olinadi. Tadbir Yoshlar ishlari agentligining YouTube sahifasi orqali jonli efirda yoritildi.

“Yoshlarni eshitamiz” loyihasi yil oxirigacha turli sohalar bo‘yicha davom etadi.





# ISHONCHLI YETAKCHI



Andijon viloyati Xonobod shahridagi Bunyodkor mahallasi yoshlar yetakchisi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

## Shuhratbek MAHMUDOV

Shuhratbek mahalladagi barcha yoshlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar bazasini shakllantirib, har bir yosh bilan individual ishlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Yoshlarning ijtimoiy holati, ta’limi, bandligi, bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazayotgani, qaysi yo‘nalishga qiziqishi kabi jihatlar bo‘yicha tahlil o‘tkazdi.

Yetakchi faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlardan biri yoshlar bandligini ta’minlashdir. Uning tashabbusi bilan 2024-yilda 15 nafar yoshga 15 sotixdan yer ajratilib, ularning tomorqada daromad topishiga sharoit yaratildi. Bu yerda mehnat qilayotgan yoshlar o‘zini band qilish orqali oila budjetiga yordam bermoqda.

Shuningdek, 5 nafar ishsiz yigit-qizga subsidiya asosida asbob-uskuna va mehnat qurollari olib berildi. Ular kasanachilik va kichik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yib, mustaqil daromad topa boshladi. Yana 8 nafar yosh kasbga o‘qitilib, o‘rgangan hunari orqali ishli bo‘ldi. 2024-yilda umumiy hisobda 18 nafar yosh doimiy ishga joylashtirildi.

2025-yil boshidan mahalladagi 22 nafar ishsiz yosh aniqlanib, ular bilan individual ishlash boshlandi. Har biri qiziqqan yo‘nalish bo‘yicha kasbga o‘qitildi va o‘ziga munosib ishga joylashtirildi.

Mahalladagi 19 nafar bitiruvchining 11 nafari iyun oyidayoq test sinovlarisiz imtiyozli tarzda oliy ta’limga qabul qilindi. Yana 2 nafari texnikumga hujjat topshirdi, 1 nafari ish bilan ta’minlandi. Qolgan 5 nafari OTMga imtihon topshirib, yuqori ball to‘pladi.

### BO‘SH VAQT MAZMUNLI O‘TYAPTI

Yoshlarga sog‘lom turmush tarzi, sport bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratish maqsadida Shuhratbek Mahmudov tashabbusi bilan kechki sport mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yildi. Natijada bunyodkorlik yoshlar “Besh tashabbus olimpiadasi”ning respublika bosqichida strit vorkaut musobaqasidan 2 karra chempionlikni qo‘lga kiritdi. Mahallada 600 million so‘m qiymatga ega universal sport maydonchasi qurib berildi.

Bu maydonchalarda futbol, voleybol, mini futbol bo‘yicha musobaqalar, jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘tkazilmoqda.



*MAHALLADA 600 MILLION SO‘MLIK UNIVERSAL SPORT MAYDONCHASI QURIB BERILDI.*

### IQTIDORLARNI ANIQLASH VA RAG‘BATLANTIRISH

Yoshlar orasida iqtidorlilarni aniqlab, rag‘batlantirish maqsadida yetakchi turli yo‘nalishlarda tanlovlar tashkil etmoqda. Mahalla yoshlari Yoshlar ishlari agentligining loyiha va tashabbuslarida ham faol ishtirokchi:

– “**Ibrat farzandlari”**da 672 nafar yosh ro‘yxatdan o‘tib, 36 nafari sertifikat olgan;

– “**Mutolaa”**da 444 nafar yoshlar ro‘yxatdan o‘tib, 4270 dan ortiq kitoblar mutolaa qilinmoqda;

– “**Ustoz AI”**da 107 nafar foydalanuvchi, ko‘rilgan videolar soni 251 ta;

– “**Uzchess**”da 57 nafar yosh elektron, audio va video shaklidagi 251 ta shaxmat bo‘yicha mahorat darslari va boshqotirmalarni mutlaqo bepul o‘qimoqda.

Bu yoshlar o‘z iste’dodini namoyon etish bilan birga boshqa tengdoshlariga ham ijobiy namunaga aylanyapti. Bu esa mahalladagi ijtimoiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

Yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan 2025-yilda “Tashabbusli byudjet” loyihasiga umumiy qiymati 1 milliard 850 million so‘mlik 2 ta loyiha taqdim etildi va har ikkisi g‘olib bo‘ldi. Bu loyihalar orqali mahalla infratuzilmasi yanada rivojlanmoqda, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

### HAYOTI O‘ZGARGAN YOSHLAR

Yoshlar yetakchisi 2025-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan tizimli ishlar olib borib, 24 nafarining muammosini “Yoshlar daftari”ga kiritish orqali hal qilgan (2 nafar yoshga kontrakt to‘lovi hamda 22 nafar yoshni band qilish orqali muammolari hal etildi). Yoshlarning bandligini ta’minlash dasturi orqali 50 nafari ishli bo‘ldi.

| “Yashil” toifa: | “Sariq” toifa: | “Qizil” toifa: |
|---|---|---|
| **683 nafar** | **301 nafar** | **18 nafar** |

**Mahalla drayveri:** dehqonchilik va xizmat ko‘rsatish.

**BUNYODKOR MAHALLASI BALANSI:**

*Aholi:* **3443 nafar;**

*Yoshlar:* **984 nafar;**

*Ayol-qizlar:* **534 nafar.**






*2024-YILDA 18 NAFAR YOSH DOIMIY ISHGA JOYLASHTIRILDI.*

Shuhratbek Mahmudov bilan yaqindan ishlagan ko‘plab yoshlar hayotida tub burilish yuz berdi. Ulardan biri – 25 yoshli Sanjar. Avvallari ishsiz, maqsadsiz, probatsiya hisobida va doimiy nazoratda turar edi. Yetakchi uni kasb-hunarga o‘qitib, subsidiya asosida motokultivator olib berdi. Keyinchalik doimiy ishga joylashtirdi.



Hozir u kunlik 200-300 ming so‘m daromad topmoqda.

Yana biri – Muzaffar. Bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport tadbirlariga yo‘naltirildi. U o‘zining mehnatsevarligi va iqtidori evaziga chempionlikni qo‘lga kiritdi.

*MAHALLA MAKTABINI TAMOMLAGAN 11 NAFAR O‘QUVCHI IMTIYOZLI TARZDA OLIY TA’LIMGA QABUL QILINDI.*

### “TOP – 100” YETAKCHIDAN BIRI

Agar har bir yetakchi Shuhratbek Mahmudovdek yoshlar taqdiriga befarq bo‘lmasa, ularning muammolarini o‘zining muammosi deb bilsa, albatta natija bo‘ladi.

Uning faoliyati yuqori baholanib, 2022-yilda respublikadagi eng faol 100 nafar yoshlar yetakchisidan iborat “Namunali yoshlar yetakchisi” reytingiga kiritilgan. “Yilning eng namunali yoshlar yetakchisi” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi ishtirokchisi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 2025-yil II chorak yakunlari bo‘yicha “Top – 100” yetakchilar safida e’tirof etildi.

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**
“Yoshlar ovozi” muxbiri

### YANGI REJA VA MAQSADLAR

Shuhratbek Mahmudov mahalla yoshlari bilan ishlashda yangi bosqichni boshlash, ular salohiyati, ijtimoiy faolligi va intellektual rivojini yanada yuqori pog‘onaga olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Kelgusida yetakchining asosiy rejalari quyidagilardan iborat.

**Yoshlar bandligini ta’minlash.** Shuhratbek mahalladagi ishsiz yoshlarni to‘liq ro‘yxatga olib, ular bilan individual ishlashni maqsad qilgan. Har bir yosh qiziqishi, salohiyati va holatidan kelib chiqib, kasbga yo‘naltiriladi, subsidiya ajratiladi va doimiy ish bilan ta’minlanadi.

Mahallada kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yoshlar uchun doimiy daromad manbalarini yaratish ko‘zda tutilgan.

**“Yoshlar klubi” va iqtidorlilar markazi.** Bunyodkorda “Yoshlar klubi” ochilishi kutilmoqda. Klubda kitobxonlik, ijodkorlik, AT, chet tili, sport va san’at yo‘nalishlarida to‘garaklar, mahorat darsi, treninglar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Alohida “Iqtidorli yoshlar markazi” tashkil etilib, har bir iste’dod egasi o‘z yo‘nalishida rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

**“Smart mahalla” konsepsiyasi.** Zamonaviy texnologiyalarni yoshlar hayotiga kengroq joriy etish maqsadida Shuhratbek mahallada “Smart mahalla” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish ustida ish olib bormoqda. Bu loyihada:

– mahalla yoshlarining raqamli portfeli yaratiladi;

– barcha faoliyatlar onlayn monitoring qilinadi;

– elektron murojaatlar tizimi ishga tushadi.

**Sport va dam olish infratuzilmasi.** 2026-yilda ikkita yangi sport maydonchasi va yoshlar uchun ochiq dam olish maskanini barpo etish loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Qizlar uchun fitnes maydonchasi qurilishi ham rejalashtirilgan.

**Psixologik va huquqiy yordam markazi.** Yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, muammolarini yechishda yordam berish maqsadida psixologik maslahat markazi tashkil etilishi kutilmoqda.

Shuhratbek Mahmudovning maqsadi har bir yosh o‘z qadrini anglaydigan, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, mustaqil va faol shaxsga aylanishiga ko‘maklashishdir. Uning fikricha, yoshlar bilan ishlash bir martalik kampaniya emas, uzluksiz, tizimli va yurakdan bajarilishi kerak bo‘lgan xizmatdir.

# RAQAMLI DUNYODA mualliflik huquqi

**Shahobiddin LUQMON**

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.





Qonunchilik hozircha bu savolga aniq javob bera olmayapti. Masalan, AQShda sun'iy idrok mustaqil muallif sifatida tan olinmaydi. 2023-yilda AQSh Mualliflik idorasi Midjourney yordamida yaratilgan komiks suratlarini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortdi. Sud ham mualliflik huquqi faqat inson ijodiga taalluqli degan vaj bilan shu pozitsiyani qo'llab-quvvatladi. Demak, bu mantiq bo'yicha agar SI biror ijodiy ish yaratgan bo'lsa, umumiy foydalanish mulki hisoblanadi. Insonning o'zgartirishi, tahriri bor bo'lsa, o'sha qism himoyalanishi mumkin.

Yevropa Ittifoqida ham shunga o'xshash yondashuv bor. Yevropa sudlari "originallik" mezonini talab qiladi, ya'ni asar ortida insonning ijodiy qarori bo'lishi shart. Biroq YI bu sohada ancha faol: 2024-yilda qabul qilingan SI aktida shaffoflik ham ko'zda tutilgan. Endilikda yirik modellarni ishlab chiquvchilar ular qaysi ma'lumotlar asosida o'qitilganini umumiy tarzda e'lon qilishlari kerak.

Buyuk Britaniya esa o'ziga xos yo'l tanlagan. Birlashgan Qirollik qonunida "kompyuter yaratgan asar" tushunchasi bor. Bu holda muallif asarni yaratish jarayonini tashkil qilgan shaxs, odatda dasturdan foydalangan odam hisoblanadi. Himoya muddati esa odatdagidan qisqaroq – 50 yil.



Osiyoda qiziqroq. Yaponiya SIni rivojlantirish uchun deyarli to'liq erkinlik bergan: istalgan ma'lumotdan foydalanish mumkin. Shu sababli yaponiyalik tadqiqotchilar bu borada katta imkoniyatlarga ega. Xitoy esa turlicha qarorlar chiqarmoqda: ba'zi sudlar SI mahsulotini mualliflik huquqi bilan himoyalaydi, ba'zilari esa rad etadi. Bu yondashuv hali umumiy tizimga tushgani yo'q.

Eng katta bahs o'qitish ma'lumotlariga oid. Internetdan to'plangan millionlab matn, surat va videolar sun'iy intellektni "o'qitish"da ishlatilgan. Lekin ular kimningdir asari bo'lishi mumkin. Bu esa nashriyotlar, musiqachilar va ommaviy axborot vositalarining noroziligiga sabab bo'lmoqda. Yevropa Ittifoqi bu borada mualliflarga "opt out" huquqini berdi: agar ular saytda yoki faylda "bu materialni SIni "o'qitish"da ishlatish mumkin emas" deb ko'rsatib qo'ysa, model ishlab chiquvchilar bunga rioya qilishi shart. AQShda esa bunday aniqlik yo'q, masala "fair use", ya'ni adolatli foydalanish tushunchasi doirasida bahs qilinmoqda.

Ayni paytda SI kompaniyalari sud jarayonlari va javobgarlik xavfidan qochish uchun katta media vakillari bilan shartnoma tuza boshladi. Associated Press, Financial Times, News Corp, The Atlantic kabi yirik nashriyotlar OpenAI bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

## PLATFORMALARDA MUALLIFLIK HUQUQI

Mualliflik huquqini himoya qilish masalasi faqat davlatlar zimmasida emas, internet gigantlari: YouTube, Instagram, TikTok, Telegram kabi platformalarning ham asosiy vazifasiga aylangan. Har bir platforma mualliflik huquqi masalasiga turlicha yondashadi.

**YouTube.** Mualliflik huquqini eng jiddiy himoya qiladigan platforma sifatida tilga olinadi. Uning Content ID tizimi dunyoda eng yirik mualliflik monitoring mexanizmi hisoblanadi. Ijodiy mahsulot egalari o'z kontentini (masalan, qo'shiq, video, film parchalari) maxsus bazaga yuklaydi. Keyin YouTube avtomatik ravishda har bir yangi yuklangan videoni shu bazadagi fayllar bilan solishtiradi. Agar moslik aniqlansa, huquq egasi videoni bloklashi, reklamadan tushgan daromadni o'ziga o'tkazib olishi yoki shunchaki statistik ma'lumot yig'ishi mumkin. Shu sababli YouTubeda mualliflik huquqini buzib ishlash deyarli imkonsiz.

**Instagram va Facebook (Meta).** Meta ham o'zining Rights Manager tizimiga ega. U asosan video va musiqalarni aniqlashga qaratilgan. Ammo Instagramning o'ziga xos jihati shundaki, u foydalanuvchilarga maxsus litsenziyalangan musiqa kutubxonasini taklif qiladi. Reels yoki stories yaratishda qo'shiq qo'shilsa, bu platformaning shartnomalari asosida qonuniy bo'ladi. Shu bilan birga, huquq egalarining shikoyat qilish huquqi ham saqlanib qoladi.

**TikTok.** Bu platforma esa ijodkorlik va "remix madaniyati"ga ko'proq moslashgan. U ko'pgina musiqiy kompaniyalar bilan kelishuv tuzgan va foydalanuvchilarga mashhur qo'shiqlarni qisqa roliklarda ishlatishga ruxsat beradi. Bu foydalanuvchilarga katta erkinlik yaratadi, ammo shu bilan birga mualliflik huquqining an'anaviy tushunchalarini ham kengaytirib yuboradi. Chunki foydalanuvchi boshqa birining kontentidan "duet" yoki "stitch" qilib foydalanishi TikTok qoidalari doirasida me'yoriy hisoblanadi, lekin bu doim ham huquqiy jihatdan shaffof emasligi aytiladi.

**Telegram.** Telegramning yondashuvi esa mutlaqo boshqacha: platforma deyarli hech qanday avtomatik mualliflik nazoratiga ega emas. Ochiq kanallarda filmlar, seriallar, kitoblar, hatto pulli kurslarning pirat nusxalari keng tarqaladi. Huquq egalari faqat shikoyat yuborsa, ma'lum kanallar bloklanishi mumkin, ammo bu jarayon sekin va ko'p hollarda samarasi past. Shu sababli Telegram ko'pincha mualliflik huquqi eng ko'p buziladigan platformalardan biri sifatida tanqid qilinadi. O'zbekistonda ham eng ko'p mualliflik huquqi buzilishi aynan Telegramda kuzatiladi.

> *O'ZBEKISTON BIRGINA YOUTUBE MONETIZATSIYA YO'QLIGI TUFAYLI YILIGA TAXMINAN 50 MILLION DOLLAR YO'QOTADI.*

## PARCHALARDAN FOYDALANISH

Ko'rsatuvlar, yangilik dasturlari, bloglar yoki ijtimoiy tarmoqlarda boshqa asarlardan qisqa parchalar keltirish odatiy amaliyot. Masalan, televideniyeda film treyleridan lavha qo'yiladi, bloger musiqadan fon sifatida foydalanadi yoki jurnalist intervyu davomida boshqa manbadan videoni namoyish qiladi. Bunda mualliflik huquqi qanday ishlaydi?

> *TELEGRAM MUALLIFLIK HUQUQI ENG KO'P BUZILADIGAN PLATFORMALARDAN BIRI SIFATIDA TANQID QILINADI. O'ZBEKISTONDA HAM ENG KO'P MUALLIFLIK HUQUQI BUZILISHI AYNAN TELEGRAMDA KUZATILADI.*

AQSh qonunchiligida "fair use" tushunchasi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, asarning qisqa parchasi quyidagi hollarda qonuniy ishlatilishi mumkin:

- ta'lim yoki ilmiy maqsadlarda,
- tanqid, sharh yoki parodiya yaratishda,
- yangilik yoritishda.

Biroq bu istagancha ishlatish mumkin degani emas. Masalan, 2010-yilda Warner Bros studiyasi bir YouTube foydalanuvchisiga qarshi da'vo qilgan: u faqat 30 soniya davom etadigan "Harry Potter" parchasini videoga qo'shgan edi. Sud buni noqonuniy deb topdi, chunki u parcha asarning eng muhim sahnasi bo'lgan. Demak, foydalanilgan qismning *ijodiy ahamiyati* ham hisobga olinadi.

Yevropa Ittifoqi "Copyright Directive" (2019) orqali yangilik dasturlarida, ilmiy ishlarda yoki tanqidiy sharhlarda qisqa iqtiboslardan foydalanishni qonuniy deb belgiladi. Ammo muallif ismi ko'rsatilishi shart. Shu sababli Yevropa OAVlarida odatda "Manba: Reuters" yoki "© BBC" kabi yozuvlar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunida ham qisqa iqtiboslarga ruxsat bor. 26-moddada aytilishicha, iqtiboslar **ilmiy, o'quv, axborot yoki tanqidiy maqsadlar** uchun va muallif nomi ko'rsatilgan holda ishlatilishi mumkin. Amalda esa ko'pincha bu talab bajarilmaydi.

## INTELLEKTUAL MULK – BARQAROR INVESTITSIYA

Mualliflik huquqi milliardlab dollarlik global iqtisodiy sohadir. Musiqa, kino, kitob, dasturiy ta'minot va hatto blog postlar – barchasi intellektual mulk sifatida katta pul aylanmasini vujudga keltiradi. Masalan, YouTube monetizatsiyasi – eng katta daromad manbalaridan biri. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda YouTube hamjamiyatiga (kontent yaratuvchilar, huquq egalari va boshqalarga) 30 milliard dollardan ortiq to'lov amalga oshirilgan. YouTube Partner Program orqali ijodkorlar reklama daromadidan ulush oladi. Mualliflik huquqi himoyasi bu jarayonning markazida turadi: agar siz boshqa musiqani ishlatsangiz, monetizatsiya avtomatik ravishda muallifga o'tadi. Ba'zida esa daromad bo'lishiladi: masalan, siz mashhur qo'shiqdan foydalanasiz, lekin ustiga o'z ijodingizni qo'shgan bo'lsangiz, tizim foyda ikkiga bo'linishini ta'minlaydi.

Spotify kabi musiqiy platformalar ham mualliflik iqtisodiyotini tubdan o'zgartirdi. 2023-yilda Spotify san'atkorlarga 9 milliard dollardan ortiq to'lov qilganini e'lon qildi. Lekin bu tizimda daromad bo'linishida mualliflarga daromadning juda kam foizi berilishi tanqid qilinadi.

O'zbekistonda kontent egalari asosiy mashhur gigant platformalar uchun monetizatsiya yoqa olmaydi. Masalan, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlillariga ko'ra, O'zbekiston birgina YouTube monetizatsiya yo'qligi tufayli yiliga taxminan 50 million dollar yo'qotadi. Bu imkoniyatni ishga tushirish iqtisodiy o'sishni 0,1 foizga oshirishi mumkin. Monetizatsiya yoqilishi soliq tushumlariga ham olib keladi. Boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tish orqali bo'layotgan yashirin iqtisodiyotning ham oldi olinadi.

Jahon miqyosida mualliflik huquqi investitsiya vositasi ham bo'lib qolmoqda. Masalan, 2021-yilda Bob Dylan qo'shiqlarining mualliflik huquqini bir necha yuz million dollarga sotdi. Boshqa ko'plab musiqachilar (Shakira, Jastin Bieber va boshqalar) o'z kataloglarini xususiy kompaniyalarga sotmoqda. Chunki bunga barqaror daromad manbayi sifatida qaraladi.

## YECHIMLAR KERAK

Mualliflik huquqini samarali himoya qilish uchun bir necha darajada chora-tadbirlar zarur. Avvalo, qonunchilikni kuchaytirish masalasi dolzarb. O'zbekistonda mualliflik huquqiga oid qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy ijrosi ko'pincha sust. Shu sababli "qaroqchi" kontent tarqatishga qarshi litsenziyalangan xizmatlarni rivojlantirish orqali kurashish samaraliroq bo'ladi. Masalan, Netflix, Spotify yoki mahalliy alternativ platformalar uchun soliq imtiyozlari va davlat qo'llab-quvvatlovi yaratish ijodkorlar uchun yangi bozor ochadi.

Texnologik yechimlar ham muhim. YouTubedagi Content ID singari tizimlarni mahalliy darajada joriy qilish, sun'iy intellekt yordamida mualliflik huquqi buzilishini aniqlash texnologiyalarini keng qo'llash dolzarb masala. Ayniqsa, Telegramdagi o'g'irlangan kontentlarni avtomatik aniqlash va ularni tezkor ravishda bloklash kabi choralar zarur bo'ladi.

Ijodkorlarning o'zi uchun ham yangi imkoniyatlar yaratish lozim. Masalan, o'zbek musiqachilari va yozuvchilari uchun xalqaro platformalarda huquqlarini rasmiylashtirishda yordam beruvchi maxsus agentliklar tashkil etilishi, kollektiv boshqaruv jamiyatlari faoliyatining kuchaytirilishi ularning mehnatini moddiy jihatdan ham himoya qiladi.

Kelajakda bu borada yangi muammolar paydo bo'lishi aniq. Sun'iy intellekt yaratgan kontent atrofidagi bahslar "sun'iy mualliflik huquqi" kabi yangi tushunchalarni shakllantirishi mumkin. NFT va blokcheyn texnologiyalari ijod mahsulotlarini tokenlash orqali mualliflik huquqini kafolatlash yo'lida yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, katta global platformalar: YouTube, TikTok, Spotify kabilar milliy qonunlardan ham kuchliroq o'yinchiga aylanib, mualliflik huquqi tartibotida asosiy rolni o'ynashda davom etishi tabiiy.

Mualliflik huquqi raqamli davrda huquqiy me'yor, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning bir qismi sifatida davom etadi va murakkab strukturaviy masalaga aylanadi. Davlatlar uchun asosiy vazifa – ijodkorni himoya qiladigan qonuniy va texnologik mexanizmlarni kuchaytirish, global maydonda raqobatbardosh tizim yaratish. Eng muhimi, jamiyatda ijodkor mehnati qadrlanadigan muhitni shakllantirishdir. Shundagina mualliflik huquqi rosmana haqiqiy kuchga ega bo'lishi mumkin.

---

**DOLZARB 90 KUN**

# SPORT, MA'NAVIYAT VA IJTIMOIY FAOLLIK RUHIDA O'TMOQDA

**Hamdamjon MAHMUDOV,**
Xo'jaqishloq mahallasi yoshlar yetakchisi

"Dolzarb 90 kun"lik doirasida mahalla raisi hamkorligida xonadonbay yurib, aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini o'rgandik, aksar muammolar joyida hal etilyapti. Aholining murojaatlari tinglanib, kam ta'minlangan, nogiron va yordamga muhtoj fuqarolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar bandligi va ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilab olinmoqda.

Mahallada yoshlar, haydovchilar, piyodalar va barcha yo'l harakati qatnashchilari uchun yo'l harakati qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuntirish va targ'ibot ishlari o'tkazildi. Yo'l harakati xavfsizligi, piyodalar va haydovchilarning asosiy majburiyatlari, bolalar va oila a'zolari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim maslahatlar berildi. Targ'ibot chog'ida yo'l harakati qoidalarini buzish oqibatlari va baxtsiz hodisalarning oldini olish zarurligi tushuntirildi; yo'l belgilarining ma'nosi, xavfsiz harakatlanish madaniyati bo'yicha qo'llanma va eslatmalar tarqatildi.

Yoshlar o'rtasida o'tkazilgan stol tennisi bellashuvlarida do'stona muhit, sog'lom raqobat va jamoaviy ruh namoyon bo'ldi. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi yengil atletika musobaqasining respublika bosqichida Xo'jaqishloq jamoasi 3-o'rinni egallab, mahalla uchun strit vorkaut maydoni va boshqa qimmatbaho sovg'alarni qo'lga kiritdi. Bu Xo'jaqishloq uchun yirik tarixiy g'alaba bo'ldi. Mahalla faxri Fayzullo Mirzatillayev "Bosh prokuror kubogi" uchun kurashning viloyat bosqichida 3-o'rinni egallab, Xo'jaqishloq nomini yana bir bor yuksaltirdi.

Mahalla hududidagi 30-maktabda Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan tayyorlangan "Bek va Lola" animatsion seriali bolalar ishtirokida namoyish etildi.

Ekologik muhitni asrash, yoshlar o'rtasida atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish maqsadida "Eco Plogging" aksiyasini ham o'tkazdik. Aksiyada mahallaning volontyor yoshlari "Qorajiyda" qabristoni atrofini tozalab, tartibga keltirdi.



---

# IBRATDA KATTA YANGILIK!



TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR SARI DADIL ODIM TASHLAYOTGAN YOSHLARGA YANA BIR KATTA IMKONIYAT!

"Ibrat farzandlari" o'zining innovatsion g'oyalari va texnologik salohiyati bilan ajralib turuvchi 10 nafar muhandis va yosh startapchilar uchun grant dasturi e'lon qildi!

Asosiy maqsad yurtimizda ham "Silicon Valley"dagi kabi kuchli, ta'sirli va global bozorga chiqa oladigan UNICORN startaplarni yaratish! Bu orqali O'zbekistonda texnologik ekotizimni rivojlantirish, yangi avlod ixtirochilari va AT liderlarini yuzaga chiqarish!

## KIMLAR ISHTIROK ETADI:

- muhandislik, IT, dasturlash va texnologiya sohasida faol bo'lgan yoshlar;
- o'z startap g'oyasi yoki MVP (minimum viable product) darajasidagi loyihasi borlar;
- mahalliy muammoni hal qiladigan yoki global bozorga chiqish salohiyatiga ega innovatsion yondashuv egalari.

**Grant tanlovida ishtirok etish uchun taqdim etiladigan ma'lumotlar:**

- To'liq ism-sharif;
- Loyiha nomi;
- Loyiha maqsadi va qisqacha tavsifi;
- Muammo va yechim;
- Texnologik yechim qanday ishlaydi?
- Jamoa haqida ma'lumot (agar mavjud bo'lsa);
- Loyihaning bosqichlari va rejalari;
- Nega siz loyihangizni ushbu grantga loyiq deb o'ylaysiz?

Bu imkoniyat orqali loyihangiz kelajakda yirik texnologik kompaniyaga aylanishi mumkin!

Ma'lumotlarni **@ibratadmin** manziliga yuborish so'raladi.

# O‘zbekiston YOSHLAR SIYOSATI

## XALQARO HAMKORLIK VA TAJRIBALARNING AHAMIYATI

**Sardor TO‘XTAYEV,**
Italiyadagi Milan universiteti magistranti



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Bundan tashqari, 2020-yil 30-iyundagi O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari tashkil etildi.





### OLIY TA’LIMDA XALQARO INTEGRATSIYA

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq oliy ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim maqsadlar belgilandi:

- yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish;
- 30 ta oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish;
- “Top – 500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida ikki diplomli tizimni joriy etish;
- 10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli “Top – 1000” oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.

O‘zbekiston OTMlari bir qator xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini amalga oshirmoqda. Deylik, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Ural davlat iqtisodiyot universiteti bilan qo‘shma ta’lim dasturini ishga tushirgan. Bundan tashqari, davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta’lim dasturlarini joriy qilish, davlat ta’lim standartlari doirasida o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritish borasida ishlar olib borilmoqda.

Umuman, O‘zbekiston yoshlar siyosati kompleks yondashuv asosida shakllanib, ichki islohot va xalqaro hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi. 2024-yilda “Yoshlar daftari” orqali 345 milliard so‘m miqdorida yordam ko‘rsatilgani, ishsiz yoshlar sonining ikki barobar kamayishi va xalqaro hamkorlik dasturlarining kengayishi mamlakatdagi yoshlar siyosatining samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Yoshlar siyosatida xalqaro hamkorlik nafaqat ta’lim sohasini, balki innovatsiyalar, “yashil” energetika, raqamlashtirish va madaniyat kabi turli sohalarni qamrab oladi. Bu esa O‘zbekiston yoshlarining global bozorda o‘z o‘rnini topishiga va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishiga xizmat qiladi.

Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yoshlarimizni rag‘batlantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi. Yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmoqda.

Islohotlar jarayonida turli farmon, qaror, farmoyishlar qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvar kunida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu taraqqiyot strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bo‘limi ham yoshlarni sifatli ta’lim olishiga yo‘naltirilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida sifatni yangi bosqichga olib chiqish ham muhim vazifalardan biridir. Buning uchun bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladi. 2022–2026-yillar davomida 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali takomillashtirish ko‘zda tutilmoqda.

### NATIJALAR

2024-yilda “Yoshlar daftari” dasturi orqali 180 ming nafar yoshga jami 345 milliard so‘m miqdorida moliyaviy yordam ko‘rsatildi. Natijada ishsiz yoshlar soni 2 barobar kamaydi va ishsizlikdan xoli mahallalar soni 1 ming 889 taga yetdi. O‘zbekistonda yoshlar aholining 60 foizini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan (20 foiz) sezilarli darajada yuqori bo‘lib, mamlakatimizning demografik salohiyatini ko‘rsatmoqda.

> 2022–2026-YILLAR DAVOMIDA 160 MINGDAN ZIYOD PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISH REJALASHTIRILGAN.

2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilingan holda bir qator muhim tashabbuslar ishga tushirildi:

2024-yil 1-martdan boshlab “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘larini yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirish;

yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha “Ustoz” maxsus platformasini ishga tushirish;

2024/2025-o‘quv yilidan “Mening maktabim” loyihasini sinov tariqasida amalga oshirish.

Shuningdek, O‘zbekiston ko‘plab davlatlar, tashkilotlar bilan turli ijtimoiy-siyosiy masalalarda, ayniqsa, yoshlar masalalari bo‘yicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirmoqda. 2025-yil 4-aprel kuni Samarqand shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Kun tartibiga muvofiq Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Sammitda yoshlar ta’limi, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, innovatsiyalar, “yashil” energetika, tog‘-kon, qishloq xo‘jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo‘shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, madaniyat, turizm, fan, ta’lim va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish muhim vazifalar qatoriga kiritildi.

# EKOLOGIYA VA TURIZM QURULTOYI

**Yulduz ERGASHEVA,**
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi



O‘zA muxbiri **Jamshid NORQOBILOV** olgan surat

> BUGUNGI TASHABBUSKOR YOSHLAR ERTANGI KUNNING HAQIQIY BUNYODKORLARIDIR.

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Loyihalar orasida ekologik yugurish (“plogging”), “Eng yaxshi ekologik loyiha”, “Eng yaxshi turizm loyihasi” kabi tanlovlar, turizm yo‘nalishida startaplar, hunarmandchilik bilan bog‘liq tashabbuslar, madaniy va sport tadbirlari bor edi. Har bir loyiha yoshlar uchun yangi ufqlar ochdi. Masalan, “Eng yaxshi ekologik loyiha” doirasidagi ishlanmalar atrof-muhitni muhofaza qilishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Turizm startaplari esa yosh tadbirkorlar uchun amaliy saboq bo‘ldi: qanday qilib o‘z biznesini ekologik jihatdan barqaror yo‘lga qo‘yish mumkinligini o‘rgatdi.

Qurultoyning unutilmas lahzalaridan biri TEDx loyihasi edi. Shu sahnada chiqish qilish menga ham nasib etdi. Men rus tilida “Daxldorlik hissi” mavzusida taqdimot qildim. Tinglovchilar e’tiborini qozonib, “Eng yaxshi taqdimot” nominatsiyasi bilan taqdirlanganim hayotimdagi yorqin yutuqlardan biri bo‘ldi. Bu nafaqat quvonch, balki menga yangi kuch, yangi mas’uliyat ham berdi. Eng asosiysi, fikrlarim odamlar qalbida jo‘shqin aks sado bergani meni ilhomlantirdi.

Bunday ulkan miqyosdagi tadbirni o‘tkazishda mehnat qilgan barcha tashkilotchilar va anjumanning mazmunli o‘tishiga katta hissa qo‘shgan ishchi guruh vakillariga o‘z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.

Qurultoy doirasida yana bir muhim voqea – “Yosh ekologlar” harakati hamda Yosh turizm elchilari Kengashi a’zoligiga saylovlar bo‘ldi. Bu ham o‘ziga xos demokratiya maktabi, yoshlar uchun katta tajribadir. Ayniqsa, biz, surxondaryoliklar uchun faxrli xabar Sarvarbek Zulqaynarov Yosh turizm elchilari Surxondaryo viloyati Kengashi raisi etib saylangani.

Qurultoy bilim almashish maydoni, madaniyatlar uchrashuvi bo‘ldi. Ishtirokchilar orasida nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni davlatlar: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya va Belarusdan kelgan yoshlar ham bor edi. Bu esa do‘stlik ko‘prigini mustahkamladi, turizm orqali xalqlarni yaqinlashtirishning amaliy isbotiga aylandi.

Tadbir dasturi doirasida Miraki turizm markaziga sayohat uyushtirildi. Safar davomida markazni o‘z ko‘zlarimiz bilan ko‘rib, tarixni his qilish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Har bir qadimiy iz, har bir arxitektura detali qalbimizda g‘urur va mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otdi.

Qurultoydan olgan taassurotlarim juda ko‘p. Men uchun bu bilim va tajriba almashuv maydoni, yangi tanishuvlar, yangi imkoniyatlar, eng asosiysi, kelajakka ishonch manbayi bo‘ldi. Yoshlar, ekologiya va turizmni birlashtirgan bu kabi tadbirlar kelajakda ham davom etishiga umid qilaman. Chunki bugungi tashabbuskor yoshlar ertangi kunning haqiqiy bunyodkorlaridir.

# YOSHLAR VENTURES

## G‘OYADAN IMKONIYAT

**Ilhom XAYRULLAYEV,**
Xalqaro Vestminster universiteti talabasi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Jamg‘armani yosh startap mutaxassislari boshqaradi. Ular orasida Shahzod Iskandarov ham bor. U bilan o‘tkazilgan suhbat davomida Yoshlar Ventures qanday ishlayotgani va qanday yondashuvlar orqali yoshlarni qo‘llab-quvvatlayotgani haqida ko‘proq bilib oldik.

*– “Yoshlar Ventures” – platforma. Bu yerda g‘oyalar aytiladi, eshitiladi, shakllanadi va amalga tatbiq qilinadi. Biz yoshlarga nafaqat maslahat, balki haqiqiy amaliy ko‘nikmalarni beramiz: pitching, biznes rejalashtirish, jamoa shakllantirish, investor bilan muloqot, strategik qarorlar qabul qilish – hammasi tajriba orqali o‘rgatiladi,* – deydi Shahzod.

Uning fikricha, jamg‘armaning asosiy ustunligi – mahalliy kontekstga moslashgan yondashuvi:

*– Biz yoshlar bilan bir qatorda turib, bir tilda muloqot qilamiz. Bu esa startap g‘oyalarni ishonchga, ishonchni esa harakatga aylantirishga yordam beradi. Bugungi kunda fond hali birorta startapga investitsiya kiritmagan bo‘lsa-da, bu holat fond faoliyatining zaifligini emas, aksincha uning puxta tayyorgarlikka tayanayotganini ko‘rsatadi. Hozirgi asosiy yo‘nalishlar: mintaqaviy darajadagi yoshlar bilan tanlovlar, pitch sessionlar va media orqali startap ekotizimini ommalashtirishga qaratilgan.*



*Jamg‘armaning yaqin kelajakdagi rejalari orasida barcha viloyatlarda yoshlar bilan ishlashni kengaytirish, onlayn startap maktablarini tashkil etish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va eng istiqbolli g‘oyalarga 200 ming AQSh dollarigacha sarmoya ajratish ko‘zda tutilgan. Jamg‘arma o‘zbek yoshlari hayotidagi eng muhim bo‘shliq – imkoniyat yetishmasligini to‘ldirishga harakat qilmoqda. Chunki istak va g‘oya bor, ammo ularni yo‘lga solish uchun turtki va tizim kerak.*

“Yoshlar Ventures” yoshlarning o‘z g‘oyasiga ishonishni, unga jiddiy yondashishni va real natijaga aylantirishini istovchi tashabbusdir. U hali o‘zining boshlang‘ich jarayonida, ammo to‘g‘ri yo‘lda. Aynan shu yo‘lda ertangi kun startapchilari shakllanmoqda.

TIL BILIMI

# BIR GO‘ZAL BILDIRGULIK

*Maktub, xat, xabar* so‘zlarini arabchadan, *noma*ni forsiydan o‘zlashtirganmiz. *SMS* – inglizcha qisqartma ot (Short Message Servie) bo‘lib, qisqa xabar xizmati, degan ma’noni anglatadi.

Xo‘sh, *xat-xabar, maktub, SMS*ning sof o‘zbekchasi nima bo‘ladi?

2007-yil “Fan” nashriyotida chop etilgan “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari” (II jild, XIV – XV asrning boshlari, tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi filologiya fanlari doktori Nasimxon Rahmon) kitobida yozilishicha, qadimgi o‘zbek tilida *noma*, *xat-xabarlar* ***bildirguluk*** so‘zi bilan ifodalangan.

Demak, eslab qolamiz:
*xat, xabar, maktub* – asli arabcha;
*noma* – forscha;
*SMS* – inglizcha.
*BILDIRGULIK* – sof o‘zbekcha so‘z.

Azizlar, siz ushbu mo‘jaz ma’lumotni do‘stlaringizga, yaqinlaringizga BILDIRGULIK tarzida yuborish bilan ona tilimiz ravnaqiga qanday hissa qo‘shishingizni bilsaydingiz...

Elmurod NISHONOV




# KITOBXON OILALAR UCHUN

## yangi mavsum start oldi!

“Yosh kitobxon oila” tanlovining 2025-yilgi mavsumi start olmoqda. Tanlovning tuman (shahar) bosqichlari joriy yil 22-avgust kuni barcha hududlarda boshlanadi. Musobaqada eng faol, bilimdon va kitobga mehr qo‘ygan oilalar o‘zaro bellashadi.

Tanlovning o‘tkazilish manzillari Yoshlar ishlari agentligining telegramdagi rasmiy sahifasida (https://t.me/yoshlaragentligi) e’lon qilindi.

YOSHLAR OVOZI
BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

**Muassis:** O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi
**Bosh hamkor:** O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
Bosh muharrir: **Hamza ABDULLAYEV**
**Mas’ul muharrir:** Muhammadshukur MUHAMMADJONOV
**Navbatchi muharrir:** Shahobiddin LUQMON
**Fotograf:** Xolida MUSULMON

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.
Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2.
Telefon: (71) 233-22-16.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi.
Hajmi – 2 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indekslar: 203, 3203.
Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-808, Adadi – 10395.
Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

/yoshlarovozi /yoshlarovozi /yoshlarovozi.uz

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-6998
123456